
IFTORLIK DASTURXONI YOZILDI



Ramazon – mehr-saxovat oyi!

Prezidentimiz tashabbusi bilan Muborak Ramazon oyida butun respublikamizda bo'lgani kabi Qo'shtepa tumanidagi mahallalarda ham xalqimizning roziligini olish, insonlar o'rtasida xayru saxovat va mehr-muhabbat rishtalarini yanada mustahkamlash maqsadida ezgu va xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.



Xususan, tumanimizdagi "Sohibkor", "O'qchi", "Loyson", "Do'stlik" hamda "Istiqlol" mahallasida yashovchi 600 nafardan ziyod kam ta'minlangan, ehtiyojmand, nogironligi bor bo'lgan, shuningdek, "Temir daftari", "Ayollar daftari" hamda "Yoshlar daftari"dagi fuqarolar uchun tuman hokimligi, sektor rahbarlari va "Mahalla" xayriya jamoat fondi tuman bo'linmasi tashabbusi bilan iftorlik dasturxonlari yozildi.

Iftorlik tadbirlarida tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari ham ishtirok etishdi.

To'kin dasturxon atrofida jam bo'lgan nuroniy otaxon va onaxonlar yurtimizga tinchlik, oilalarimizga totuvlik, ro'zg'orimizga qut-baraka, shunday ehsonlarga bosh-qosh bo'lib turgan barcha rahbarlar ishlariga rivoj tilab, duo qilishdi.

Bu kabi iftorliklar tumandagi har bir mahallalarda davom etadi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-03-30 09:41:15